

**ABU NASR FAROBIYNING “FOZIL ODAMLAR SHAHRI” ASARIDAGI
ARISTOTEL VA AFLOTUN G‘OYALARI****Isomiddinova Bahora Qodir qizi***Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” (asl nomi Risola fi aro ahl al-madina al-fazila) asari tahlil qilinadi. Undagi falsafiy qarashlar bevosita antik davr mutafakkirlari — Aflotun va Aristotel ta’limotlariga asoslanadi. Muallif ushbu asar orqali komil inson va adolatli jamiyat haqidagi g‘oyalarini ilgari suradi. Asarda jamiyatning kelib chiqishi va zarurati, shahar va davlat turlari, fozil rahbar obrazi, inson tanasi a’zolari bilan qiyoslash kabi masalalar yoritilgan. Sharq falsafasida, xususan, Farobiy va undan keyingi mutafakkirlar bu ikki yunon faylasufining qarashlarini bir-biriga zid emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi ta’limot sifatida talqin qilganlar.*

Shuningdek, asarda turli bo‘limlar mavjud bo‘lib, ular orasida “Arastu falsafasi”, “Ilmning kelib chiqishi”, “Ilmlar tasnifi haqida” kabi risolalar muhim o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: *Abu Nasr Farobiy, Sharq falsafasi, adolatli jamiyat, davlat turlari, fozil rahbar, yunon faylasuflari, Aristotel, Aflotun.*

Abstract: *This article analyzes Abu Nasr Al-Farabi's work "The City of Virtuous People" (original title Risola fi aro ahl al-madinah al-fadila). The philosophical views in it are directly based on the teachings of ancient thinkers - Plato and Aristotle. Through this work, the author puts forward his ideas about the perfect person and a just society. The work covers issues such as the origin and necessity of society, types of cities and states, the image of a virtuous leader, and comparison with the organs of the human body. In Eastern philosophy, in particular, Al-Farabi and subsequent thinkers interpreted the views of these two Greek philosophers as complementary, not contradictory, teachings.*

The work also contains various sections, among which such treatises as "The Philosophy of Aristotle", "The Origin of Science", "On the Classification of Sciences" occupy an important place.

Keywords: *Abu Nasr Al-Farabi, Eastern philosophy, just society, types of state, virtuous leader, Greek philosophers, Aristotle, Plato.*

KIRISH

Avvalo, ushbu asar muallifi — Abu Nasr Farobiy haqida qisqacha ma’lumot beramiz. U ilk o‘rta asrlarning buyuk mutafakkirlaridan biri bo‘lib, o‘z davrining eng yetuk olim va faylasuflaridan sanaladi.

Farobiy hijriy 260-yilda (taxminan milodiy 873-yilda) Sirdaryoga quyiladigan Aris daryosi bo‘yida joylashgan Farob (O‘tror) shahrida, hozirgi Toshkentdan taxminan 200–260 kilometr shimoli-g‘arbda tug‘ilgan.

U dastlab Farobda tahsil olgan, keyinchalik Shoshda (Toshkent), shuningdek, Buxoro va Samarqand shaharlarida ta’limini davom ettirgan. Farobiy tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarning deyarli barcha sohalarini qamrab olgan 160 dan ortiq risola yaratgan.

Bugungi kunda Abu Nasr Farobiyning boy merosi keng o'rganilmoqda. Uning ayrim asarlari rus, o'zbek, qozoq tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan. Farobiy Platon (Aflotun), Aristotel, Aleksandr, Yevklid, Ptolomiy asarlariga sharhlar yozgan, turli falsafiy maktablar — pifagorchilar, stoiklar, kiniklar ta'limotlarini chuqur o'rgangan.

Aristotelning ilmiy qarashlarini mukammal bilganligi, yunon donishmandlari merosini chuqur o'zlashtirgani hamda ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi uchun Farobiy "Al-muallim as-soniy" ("Ikkinchi muallim"), "Sharq Aristoteli" degan unvonlarga sazovor bo'lgan. Uning yana bir muhim ishlari musiqa sohasiga oid asarlaridir. Ma'lumotlarga ko'ra, Farobiy yoshligidan musiqaga qiziqqan va o'sha davrda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan ko'plab musiqa asboblari chalishni yaxshi bilgan.

Farobiyning Fozil odamlar shahri asarida Aristotelning ijtimoiy borliq, davlat boshqaruvi, axloq, baxt, fozil va nofozil shaharlar haqidagi g'oyalari o'z aksini topgan. Shuningdek, metafizik asos sifatida ierarxiya va tartib tushunchalari ham muhim o'rin egallaydi.

Ijtimoiy borliq. "Siyosiy hayvon" konsepsiyasiga ko'ra, Aristotel o'zining Siyosat asarida insonni tabiatan "zoon politikon" deb atagan. Farobiy bu g'oyani yanada rivojlantirib, inson jamiyatdan tashqarida mukammallikka erisha olmasligini ta'kidlaydi.

Hamkorlik zaruriyati. Aristotel kabi, Farobiy ham inson o'z ehtiyojlarini yolg'iz qondira olmasligini uqtiradi. Inson kamolotga faqat jamoa ichida, boshqalar bilan o'zaro hamkorlik orqali erishadi.

Fozil va nofozil shaharlar. Aristotel davlat tuzumlarini tahlil qilganidek, Farobiy ham jamiyatlarni turkumlarga ajratadi.

- Johil shahar: aholisi haqiqiy baxt nima ekanini bilmaydi va uni moddiy ne'matlar bilan cheklaydi.

- Fozil shahar: bu insonlar o'zaro yordam va hamkorlik orqali haqiqiy saodatga erishadigan jamiyatdir. Uni axloqan pok, dono rahbar boshqaradi.

Farobiy fozil shaharni sog'lom tanaga o'xshatadi: tanadagi a'zolar yurak uchun qanday xizmat qilsa, jamiyat a'zolari ham umumiy farovonlik yo'lida hamjihat faoliyat yuritadi. Uning fikricha, davlatning asosiy maqsadi — aholini haqiqiy saodatga yetkazishdir. Bu g'oya Aristotelning Nikomax etikasi asaridagi "oliy yaxshilik" tushunchasiga yaqin.

Farobiy asarida Aflotun g'oyalari ham muhim o'rin tutadi:

- G'oyalar nazariyasi. Aflotunga ko'ra, moddiy dunyo haqiqiy emas, balki g'oyalar dunyosining soyasidir.

- Ideal davlat. jamiyat uch tabaqaga — hukmdor-faylasuflar, harbiylar va ishlab chiqaruvchilarga bo'linadi.

- Ruhning abadiyligi va anamnez: bilim — eslash jarayoni sifatida talqin etiladi.

- Platonik sevgi: go'zallik orqali haqiqat va ilohiylikka intilish.

Aflotun va Farobiy bog'liqligi. Farobiy "Fozil odamlar shahri"ni yozishda Aflotunning Davlat asaridan ilhomlangan. Biroq u ba'zi keskin g'oyalarni (masalan, umumiy mulkchilik) yumshatib, sharqona va islomiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan.

Aristotel va Farobiy bog'liqligi. Farobiy mantiqni til bilan bog'laydi: til so'zlarni to'g'ri ifodalashni o'rgatsa, mantiq fikrni to'g'ri shakllantiradi. Aristotel aqlni faol va passiv

turlarga ajratgan bo'lsa, Farobiy uni potensial, faol va orttirilgan aql bosqichlariga ajratib, bilish jarayonini yanada chuqurroq izohlaydi.

Xulosa

Ushbu asar Aristotelning mantiqiy va siyosiy qarashlari hamda Aflotunning ideal davlat haqidagi g'oyalarini sharqona va islomiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan mukammal falsafiy tizimdir. Asarda insoniyat uchun baxtli hayot formulasi — adolatli boshqaruv, mukammal bilim va o'zaro hamkorlik asosiy omil sifatida ko'rsatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mirmuhsin Mahdiy - “Al-Farabi and the Foundation of Islamic Political Philosophy”(2010) 125-147
- 2.Abdusodiq Irisov filologiya fanlar doktori-“Farobiy haqida”(2018) 3-16.
- 3.Muzaffar Xayrullayev falsafa fanlar doktori-“Forobiy haqida”(2018)3-9
- 4.Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti (1993)
- 5.Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”,”Yangi asr avlodi”(2018)
- 6.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Forobiy>
- 7.https://uz.wikipedia.org/wiki/Fozil_odamalar_shahri.